

THE MUSIC IS USEFUL ART

Student of the Uzbek National Music Institute named after Yunus Rajabi

Dilnavozxon A'zamova

***Annotation:** This article discusses how music affects the human psyche and the time of the art of makom in human perfection. Everyone is a unique, unique miracle, with different thoughts, ideas and worldviews.*

***Key words:** Abu Nasr al-Farabi, Darvesh Ali Changi, musicology, makom, art*

MUSIQA —FOYDALI SAN'AT

Dilnavozxon A'zamova

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

4-bosqich talabasi.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqaning inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi, maqom san'atining inson komillikka erishishidagi o'rni to'g'risida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Abu Nasr Farobiy, Darvesh Ali Changiy, musiqa ilmi, maqom, san'at.*

Har bir inson o'ziga xos, takrorlanmas mo'jiza bo'lib, turlicha o'y-fikr, dunyoqarashga ega. Shuningdek, hammaning yurish-turishi, gapirishi, dunyoqarashi turlicha bo'ladi. Hammamiz kiyimimizni, iste'mol qiladigan oziq-ovqatlarimizni didimiz, xohishimizga qarab tanlaymiz. Tanamiz uchun bular qanchalik zarur bo'lsa, ruhimiz uchun ham ozuqa kerak. Ruhimizni ham did bilan tanlangan ma'naviy ozuqalar orqali oziqlantirsak, nur ustiga nur bo'ladi.

Mana shunday inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, uning ichki dunyosini go'zallashtiradigan, unga ma'naviy ozuqa bera oladigan ulkan kuchga ega san'at turi bu musiqadir. Bu borada buyuk allomalarimizning ham fikrlari mavjud. Jumladan, Abu Nasr Farobiy ta'kidlaydi: "Musiqqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun

ham foydalidir. Chunki, tana kasal bo'lsa, ruh so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi".

Musiqaning ilmining tarixi qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Rivoyatlarda aytilishicha, Alloh taolo Hazrati Odam alayhissalomni yaratib, uning vujudiga jon kiritish paytida musiqaning sadolari yangragan ekan. Bundan tashqari, har bir xalqni musiqaning bilan bog'liq bo'lgan turlicha afsona, rivoyatlari mavjud. Ulardan biri XVI-XVII asrlarda yashab ijod qilgan Darvish Ali Changiy va uning chang sozi ijrochiligiga oid quyidagi ma'lumotni keltirish mumkin: "Buxoroda (XVI asr) Shayboniylardan bo'lgan Abdullaxonning zamondoshi Xo'jai Kalon (Buyuk Xo'ja, Shayx Xo'ja Sa'd) og'ir dardga giriftor bo'ladi. Tabib Sulton Muhammad uni davolab, kasalni yengishda chang mashqlarini eshitishni tavsiya etadi. Xo'ja Sa'd Darvish Alini huzuriga chorlaydi. Darvish Ali uch oy davomida Sa'd qoshida chang chaladi. Shundan so'ng Xo'ja butunlay tuzalib ketadi".

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, milliylikimizni o'zida mujassam etgan mumtoz ohanglarimiz qadim zamonlardan beri insoniyat hayotida muhim o'rin tutgan va uzoq yillar davomida saqlanib, rivojlanib, sayqallanib kelgan.

O'zbek mumtoz musiqasi durdonalaridan biri hisoblanmish maqomlarimiz ham avvallari xon saroylarida ijro etilgan. Hozirgi kunda esa shoh asarlarimizdan barcha bahramand bo'lishi mumkin. Xalqimiz, yoshlarimizda yuksak insoniy tuyg'ular, mardlik ruhida ma'naviy tafakkurini boyitish, milliy o'zligimizni anglash, estetik didni shakllantirishda maqom san'atining o'rni beqiyos. Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli qarorlarida O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Ushbu qarorga muvofiq, bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi tarkibidagi O'zbek milliy maqom san'ati fakulteti - Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqaning san'ati instituti sifatida alohida ajralib chiqdi. Yaqinda Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga maqom ohanglaridan eshittirib borish taklifini berdi. Darhaqiqat, maqom ohanglarini yosh bolalarga eshittirish ularning

estetik olami takomillashib borishiga zamin yaratadi. Madaniyat vazirligi tomonidan maqom kuy va ashulalaridan iborat bo'lgan maxsus to'plam bolalar uchun ishlab chiqildi.

San'atga oshino qalbdan yomonlik chiqmaydi, deyishadi. Bolalik paytidan boshlab milliylikimiz mujassam bo'lgan maqomlarimizni tinglab ulg'aygan yoshlarimizdan kelajakda Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy va boshqa ko'plab shu kabi buyuk insonlar yetishib chiqishiga aminmiz. Har bir inson qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar milliy ohanglarimizni tinglasa, ular matnidagi mazmunlarni uqib olsa, xalqimiz madaniyati yanada yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov R. G'. " Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005-yil 7-b
2. Rajabov I. "Maqomlar" T: San'at. 2006-yil 18-b
3. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi.—Toshkent: Fan, 1993, 56-b.